

MAXMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODIDA INSON ERKINLIGI VA MA‘RIFIY UYG‘ONISH G‘OYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-346-351>

Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1-kurs magistranti

munisamannobova18@gmail.com, +998 (88) 267-18-01

Ilmiy rahbar: Ikramova Iroda Rixsivayevna

PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maxmudxo‘ja Behbudiy ijodida inson erkinligi va ma‘rifiy uyg‘onish g‘yalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilik harakati doirasida shakllangan ushbu qarashlar orqali Behbudiyning insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilganligi yoritiladi. Behbudiyning adabiy merosi namunalari misolida ma‘rifatning inson kamolotidagi o‘rni hamda uning jamiyatni qayta takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik harakati, Mahmudxo‘ja Behbudiy, yangi usul maktablari, inson erkinligi, ma‘rifat, “Behbudiya” kutubxonasi, teatr, ijtimoiy taraqqiyot, milliy uyg‘onish.

KIRISH

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olganidan keyingi mustamlaka davrida shakllangan ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifiy harakatlardan biri jadidchilik harakatidir. Jamiyatda savodsizlik, eski ta‘lim tizimi va ijtimoiy orqada qolish kuchli bo‘lgan bu davr XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Jadidchilik harakati mohiyatan ma‘rifatparvarlik g‘oyalariga asoslanadi va jamiyatni qayta isloh qilishni asosiy maqsad qilib belgilab oladi. Ma‘rifatparvarlar ilm va axloqni targ‘ib etishni nazariy g‘oya sifatida bergan bo‘lsalar, jadidlar ta‘lim tizimini o‘zgartiradi va amalda islohotlar o‘tkazadilar. Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy ma‘rifatparvarlikning yirik namoyandalari bo‘lsa, jadidchilikda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon va Fitrat kabi jamiyatning islohotchilarini ayta olamiz.

TAHLIL VA METODLAR

Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, jadidchilik harakati va uning namoyandalari haqida Abdulla Avloniy, Fitrat kabi zamondoshlari o‘z asarlarida muhim fikrlar bildirganlar. Keyingi davrlarda esa bu masala Begali Qosimov, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan keng tadqiq etilib, jadidchilikning mohiyati, uning ijtimoiy ahamiyati hamda Behbudiy faoliyatining tarixiy o‘rni chuqur tahlil qilingan.

Mazkur maqolani keng-ko‘lamli yoritib berishda asosan tarixiy, germenevtik, sistematik va tahliliy metodlardan foydalanildi. Bu esa maqolaning mohiyatini ochib berish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yordam beradi.

NATIJAR VA MULOHAZALAR

Turkiston jadidlarining boshchisi, publitsist va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy borasida fikr-mulohazalar yutilar ekan bevosita jadidchilik davri va Turkiston o‘lkasining mustamlakachilik davri tarixidan so‘z yuritiladi. Negaki, Behbudiy ushbu harakat asoschilaridan biri bo‘lib, jamiyatni jaholat holatidan qutqarish uchun keskin harakatlarni amalga oshiradi. Uning islohotlarini ana shu davrda e‘tibordan chetda qolib ketgan har sohada uchratamiz. “Xususan, jadidlar harakati, yangi usul maktablari, matbuoti, teatri, adabiyoti, taraqqiyparvarlarning ilm-fanga, dinga, dunyoga – umuman, bashariyat hayotining juda ko‘p jabhalariga munosabatlari tasavvurda jonlanadi” [1,3]. Mana shu sa’y-harakatlarning asosida Behbudiyning jamiyatni qayta isloh qilish va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari turadi. Jadidlarning g‘oyalarining tub negizida turuvchi muhim jihatlar qatorida insonning erkinligi masalasini ham ko‘ramiz. Behbudiy inson erkinligini faqatgina siyosiy tushuncha sifatida baholamaydi, balki ma’naviy va ijtimoiy jarayon sifatida talqin etadi. Behbudiy erkinlikni avvalo insonning ichki dunyosi, tafakkuri va ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki bilan bog‘lar ekan buning namoyon bo‘lishida uch yo‘nalishning muhimligini asoslab beradi. Ular quyidagilar: fikrlash erkinligi, ta’lim olish erkinligi va o‘z hayot yo‘lini tanlash huquqi. Bu uch yo‘nalishning qiymatini ochib berishda Behbudiyning bir qancha maqola va asarlarini keltira olamiz. Xususan, uning “Ikki emas, to‘rt lozim” maqolasi orqali fikrlash erkinligi til va bilim orqali boyib borishi ta’kidlansa, “Turkiston bolalariga murojaat” asari esa yosh avlodni ilmga undovchi manba sifatida qaraladi. Bu o‘z navbatida ta’lim olish va hayot yo‘lini tanlash borasidagi namunaviy asardir. “Padarkush” va “Bizni kemiruvchi illatlar” kabi asarlari esa jamiyatdagi jaholat va mutaassiblikni erkinlikning birlamchi to‘sig‘i sifatida ochib beradi.

Fikrlash erkinligi Behbudiy nazdida insonning mustaqil ravishda mushohada yuritishi, o‘z fikrlari orqali jamiyatda o‘rniga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi. “Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistikasi, teatri, adabiyoti, matbaa faoliyati, uning turkistonliklarning siyosiy ongi haqidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan. Uning o‘zbek tili va umuman mintaqadagi til siyosati haqidagi qarashlari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yoqotmagan” [2,410]. Hozirgi kunga qadar qiymatini saqlab kelgan tilning ahamiyati Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida til masalasi insonlar orasidagi kommunikativ vosita sifatida emas, balki fikr va ma’naviy erkinlikka eltuvchi yo‘l sifatida talqin qilinadi. “Biz, turkistonliylarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o‘zbakiyni sababi shulki, Turkiston xalqining askari o‘zbakiy so‘zlashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabo tilidur. Bu kungacha Turkistonni(ng) har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelingandur” [1,356]. Behbudiy maqolada shuni ta’kidlaydiki, inson faqat ikki til bilan cheklanib qolmasdan kamida to‘rt tilni bilishi zarur. Odatda ona tili sifatida o‘zbek tilini bilishi, qo‘shimcha tarzda diniy til sifatida

arab tilini o‘rganish, mintaqaviy tillardan bo‘lgan turkiy yoki forsiy tillarni va zamonaviy til sifatida rus yoki Yevropa tilarini o‘rganish orqali inson qancha ko‘p til bilsa dunyoqarashi kengayib borishini ifodalab bermoqda. Til bilmagan insonning fikrlash olami tor bo‘lib, boshqalarga qaram holatda yashashi haqidagi bu fikrlar birgina insonning ham erkin fikrlashi, ham erkin va farovon hayot kechirishiga ishora qilmoqda.

Inson qanchalik ko‘p til bilsa shunchalik ana shu til madaniyati, manbaalari va til hayoti bilan yashar ekan turfa xil g‘oyalarni ko‘radi, qiyoslash va tafakkur qilish qobiliyati yuqorilaydi, mustaqil fikr egasi sifatida kamol topadi. Aks holda, boshqalarning fikrlari asosida qaramlikda yashaydi. “Bizga lozimki, o‘z nafimiz uchun Ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o‘quyluk. Davlat mansablariga kirayluk. Vatanimizga va o‘z dinimizga xizmat etayluk. Musulmon bo‘lib turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat ilmsiz bo‘lmaydur” [3, 136]. Behbudiyning ushbu fikrlari birgina til bilmaslik orqali nafaqat insonning fikr erkinligi, balki ijtimoiy erksizligining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishini tasvirlamoqda. Til bilish bu shaxsiy rivojlanishdan boshqa milliy uyg‘onish podevori hamdir. Ana shu davrda rus siyosati davrining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini aks ettirib turgan ushbu maqola hech bir soha, hatto din va millatga xizmat qilish ham ilmsiz bo‘lmasligini, bizning jamiyat qaramlikda hayot kechirishini va hukumatning hech qaysi sohasida o‘zimizdan chiqqan ziyoli insonlarni uchratmasligimizni bayon etadi. Mana shunday vaziyatda til o‘rganish yuqoriga olib boruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Jamiyat taraqqiy topar ekan haqiqiy erkinlikka erishadi. Haqiqiy erkinlik esa fikr erkinligida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida bilim va ma‘rifat orqali erishiladigan, zamon bilan hamnafas tarzda hayot kechiradigan jamiyat vakillariga xosdir. Behbudiyning til o‘rganish va uning ortidan millat farzandlarining ilm-fan va taraqqiyotning cho‘qqisiga chiqishi haqida uning “Munozara” haqida nomli maqolalarida ham uchratsak bo‘ladi.

Har bir soha, har bir jarayon ma‘lum bir ketma-ketlik va bosqichlar orqali amalga oshadi. Shunday ekan Behbudiy qarashlarida fikr erkinligiga erishish yo‘llaridan biri sifatida ta‘lim olish zarurligi keltiriladi. Ta‘lim olish erkinligi Behbudiy nazarida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Uning “Turkiston bolalariga murojaat” maqolasida yosh avlodni ilm olishga, zamonaviy bilimlarni egallashga chorlaydi. “Binoan alayh yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarining ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizom va ikmoliga ko‘p ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suvratda yetushdurarlar” [1, 370]. Barcha davlatlar farzandlarini ilmi qilish uchun ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni egallashi va zamon bilan barobar rivoj topishi uchun maktab tizimiga alohida e‘tibor qilib turgan bir paytda biz ham yosh avlodga ta‘lim berishni qayta isloh qilishimiz zarurligini ta‘kidlagan Behbudiy “yangi usul” dagi maktablarni ochish zarurligi masalasini o‘rtaga qo‘yadi. “Mahmudxo‘ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma‘rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktabi tarmog‘larini kengaytirish, ular uchun o‘quv dasturlar va darsliklar yaratish, o‘quvchilarni o‘quv

qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug'ullandi"[4,31].

Behbudiy boshchiligida Abduqodir Shakuriy Samarqandda ilk jadid maktabini ochgan. Keyinchalik esa biri-ketin Buxoro va boshqa shu kabi hududlarda maktablar ochila boshlandi. Bolalarga ta'lim berishda darsliklar yaratishga, qulay sharoitda darslarni tashkil etishga harakat qilindi. Bir qancha jadidlar yangi usuldagi maktablarda o'zlari yozgan darsliklardan foydalanganlar. Masalan, aksariyat jadid maktablarida Behbudiyning darsliklaridan foydalanildi. ““Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy” (Qisqacha umumiy geografiya), “kitobat ul-atfol”(Bolalar maktublari), “Muxtasar tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug'rofiyayi umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy” (Rossiyaning qisqacha geografiyasi)”[4,31].Behbudiyning yuqoridagi darsliklaridan Shakuriy va boshqa muallimlar dars berdilar.

Maktab tizmida imtihonlarni tashkil etish, bolalarga sifatli ta'lim berishga alohida e'tibor qaratilgan. O'quv materiallarini yetkazib berish, qulay sharoitlarni tashkil etishga harakat qilingan. Hatto, ayrim maktablarda hududlar kesimidagi xaritalardan ham foydalanilgan. Maktabning eng muhim jihatlaridan biri esa o'quchilar uchun tan jazolari qo'llanilmaganligidadir. Shu o'rinda aytish joizki, insonning qadr-qiyamatiga urg'u berish aynan shu yerda sezilarli darajada ko'rinib turibdi. Jadidlar faoliyat yuritgan bu maktablarda barchaning ta'lim olish imkoniyati mavjud bo'lgan.

Bundan tashqari “Nashriyoti Behbudiya”da ilk darsliklar bosib chiqarila boshlagan. “Doxiliyya va xorijiyadagi muhtaram noshirlarga ushbuni ila e'lon o'linurki, “Behbudiyya kutubxonasi” isminda bir mahzani kutub ochmoqqa hukumatdan ruxsat olindi” [1, 202]. Samarqandda tashkil etilgan kutubxona Oyina mahallasida joylashgan bo'lib, u rasmiy tarzda Rossiya hukumatining ruxsati asosida tashkil etilgan. Kutubxonadan foydalanish juda qulay va uning bir yil uchun badal puli uch so'm bo'lgan. “Behbudiya” kutubxonasi barcha uchun kitob o'qish, chet el jurnallari va gazetolari bilan tanishish, yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatini yaratdi. “Kutubxonaga Russiyada va xorijda tab' bo'lub, senzuran o'tgan har nav' qadim va jadid, arabiy, forsiy, turkiy va farangiy kitoblar, ilmiy va fanniy xarita va asboblarga kulliyat ila olinib, arzon baho ila donalab va ko'plab sotilur”[1, 202]. Har qanday tildagi manbalar, gazeta-jurnallar, to'plam va tasvirli kitoblar, xarita va asboblarga qadar ushbu kutubxonada jamlangan. Shu bilan bir qatorda, jadidlarning yozgan darslik va kitoblarini topish imkoniyati mavjud bo'lgan. Ushbu kutubxonadagi manbalar asosida darslarini tashkil etuvchi jadidlar ham bo'lgan.

Behbudiy jamiyat hayotini bor holatida tasvirlashda davom etar ekan uning “Padarkush” dramasi qiyamati sezilib turadi. “Padarkush” dramaturgiya sohasidagi dastlabki asar hisoblanadi. Bu asarning yaratilishi o'z navbatida teatr faoliyatining tashkil etilishi bilan bog'liq. “Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz “Padarkush”ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'qand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarida millat nafi uchun ko'ngullilar sahnada qo'tub, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foidasig'a berdilar” [3,125]. Turkiston ahli teatr ne ekanligini bilmay turgan bir paytda

Behbudiy ilk sahna asarini taqdim etar ekan, undan tushgan mablag‘larni ta‘lim uchun sarflaydi. Ta‘lim bilan bir qatorda asarning yaratilish mohiyati alohida ustuvorlikka egadir. Asardan ko‘zlangan maqsad jamiyatda insonlarning erkin fikr asosida erkin hayot tarzini tanlov qila olmasliklari ochib beriladi.

Bilamizki, “padarkush” so‘zi o‘z padarining qotiliga aylangan insonlar uchun qo‘llaniladi. Asar qahramoni hisoblangan boy va uning o‘g‘li Toshmurod obrazlari orqali jamiyatning haqiqiy ahvoli va insonlarning asl dunyoqarashi tasvirlanadi. Boy obrazida jamiyatning eski vakillaridan hisoblangan va moddiy boylikni ustun qo‘yuvchi insonlar, e‘tiborsizlik va tarbiyani chetga surgan tarzda erkinlik berish orqali jamiyatni fojiali holatga olib kelayotgan shaxslar haqida ochib beriladi. Markaziy fojiviy qahramon Toshmurod esa tarbiyasiz ulg‘aygan va notog‘ri muhit ta‘sirida yashagan bo‘lib, insonning noto‘g‘ri tanlov qilishi va dunyoqarashning sust ekanligi oqibatida qotilik darajasiga qadar yetib borishini ko‘rsatib beradi. Uning atrofidagi shaxslar fikrlari bilan yashashi, o‘z hayotini tashkil etishda yoki harakatlarini amalga oshirishda shaxsiy fikr va dunyoqarashga ega bo‘lmasdan qaram holatda ulg‘ayganligi eng achinarli holatlardan biri sifatida qaraladi. Asarning tub mohiyatiga yetib borishda asosiy o‘rin tutgan yana bir obraz domla va ziyoli bo‘lib, ularning boy bilan suhbatlarida ilmi inson, uning fikrlashi va ilm olishning, tarbiyaning muhimligini, haqiqiy erkinlik faqat ma‘rifat orqali bo‘lishini ko‘rsatadi. “Behbudiyning o‘zi ixcham “milliy tragediya” deb ta‘riflagan bu asar millatning o‘z farzandlarni o‘qitish, ma‘rifatli qilish, o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatni yuksaltirishga har jihatdan qodir bo‘lishiga qaramay, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqidagi bashorat edi” [3, 54]. Ko‘rib turganimizdek, asar qahramonlari jamiyatni tashkil etishda ma‘rifat yo‘lidagi kishilar va jaholat botqoqig‘a tortayotgan kishilar hayotini ham ochib beradi.

Asarda bosh qahramonning fojiali taqdiri inson erki faqat tashqi ozodlik bilan emas, balki ichki ong, tarbiya va ma‘rifat bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ifodalanadi. Yosh avlodning notog‘ri muhit, jaholat va tarbiya yetishmasligi tufayli hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olmasligi, natija otasining qotili bo‘lish darajasiga qadar yetib boradi. Bu fojiviy yakun aslida insonning erkin tanlov qilish imkoniyati bo‘lsa-da, ongli ravishda qaror qabul qila olmasligi qanday holatlarga qadar yetib borishini ko‘rsatib berdi. Umuman olganda, inson o‘z taqdirining yaratuvchisi bo‘lar ekan avvalo ma‘rifatli, ongli va axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishi zarur. Insonning hayot yo‘lini erkin tanlay olishi ongli inson bo‘lib kamol toppish orqali asoslab beriladi.

Behbudiyning qarashlarini birgina maqsad doirasida birlashtira olamiz. U ham bo‘lsa “milliy uyg‘onish” g‘oyasi. Ma‘rifatga asoslangan, erkin va taraqqiy etib borayotgan, ilmi jamiyatni tashkil etishni ko‘zlangan, milliy qadriyatlarni saqlagan holatda zamonaviylikni olib kirish kabi asosiy masalalar nazarda tutiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida jamiyatni faqatgina ta‘lim va tarbiya orqali rivoj toptirish emas, balki bu natijalarga erishish uchun insonning o‘zida barcha xususiyatlarni jamlash darkorligiga alohida urg‘u beriladi. Inson erkinligi va milliy uyg‘onish g‘oyasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib,

bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Behbudiy nazdida haqiqiy erkinlik faqat tashqi siyosiy ozodlik emas, balki insonning ichki ongining uyg‘onishi, mustaqil fikrlashi va o‘z hayotini ongli ravishda boshqara olishi bilan belgilanadi. Milliy uyg‘onish – xalqning jaholatdan chiqib, ilm-ma‘rifatga yuz tutishi, zamonaviy bilimlarni egallashi va o‘zligini anglash jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Iskandar Madg‘oziyev. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: “Zabarjad media”, 2025. – 432 b.
2. Kurbanova Marguba Boltaevna. Mahmudhoja Behbudi on the Importance of Learning Languages//Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch, 2024, №46. – P. 410-414.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarg‘a murojaat. – Toshkent: “Turon zamin”, 2024. – 189 b.
4. Z. Abdurashidov. Jadidlar . Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 156 b.